

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

7
2023



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



7491
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 406 sahifa, 30-iyul, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'ZR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori
Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'ZR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari
Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'ZR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Utayev Uktam Choriyevich, O'ZR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'ZR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori
Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori
Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'ZR Tabiat resurslari vazirligi,
O'ZR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli
qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Green Economy Transition Strategy for Uzbekistan	6
Raekwon Chung , Chairman, Supervisory Committee for New Climate Innovation Center at TSUE	
Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning dolzarb masalalari.....	8
Nodira Shotursunova , Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
"Yashil iqtisodiyot" dan "yashil taraqqiyot" sari.....	12
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich , t.f.n., dotsent	
Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalashning mohiyati va xususiyatlari.....	16
Egamov Zoxid Baxtiyarovich , bosh mutaxassisi	
Unleashing the Potential of Human Capital for Green Development: Bridging the Gap between Environmental Sustainability and Skill Development.....	26
Muratova Muzayana , Teacher	
Анализ состояния применения механизма инновационного управления инфраструктурами нефтегазовых предприятиях в условиях глобальной потепление земли.....	34
Кучаров Абдор Сабирижанович , профессор; Динара Нурмамад кизи Ишманова , доцент; Тю Константин Геннадьевич , соискатель	
Enhancing Methodology for Developing Professional and Communicative Skills of Future Economists in the Context of Teaching English and Green Economy	39
Nargiza Samandarova Muxammadovna , Teacher	
The Role of Higher Education in Shaping a Sustainable Green Economy.....	47
Ikromov Sayidolim , Teacher	
O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari.....	54
Rasulova Nigora Yusupovna , kafedra assistenti	
Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmning ahamiyati	58
Jontemirova Iroda Ikrom qizi , talaba	
Iqtisodiy rivojlanish yo'lida "Yashil iqtisodiyot" ning o'rni.....	61
Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna , talaba	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirish tizimiga o'tishning ahamiyati.....	64
Raxmanov M. A. , tayanch doktorant	
Sustainable Globalization: Nurturing a Green Economy in Higher Education.....	68
Tukhtaeva Shakhnoza , Teacher	
Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni investitsiyalar yordamida oshirish xususiyatlari.....	75
Bauyetdinov Majit Janizagovich , kafedra dotsenti; Djumaniyazov Ubbiniyaz Ismayl uli , tayanch doktoranti	
Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligini baholash.....	79
Berkinov Bozorboy , iqtisodiyot fanlari doktori, professor; Qulmatova Sayyora Safarovna , PhD; Ruxsatova Rushana O'ktamovna , erkin tadqiqotchisi	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari	86
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda eksportni kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari.....	97
G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich , i. f. d., professor; Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , i. f. d. (PhD)	
Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellash tizimining samaradorligini yanada oshirish usullari.....	102
Raxmanov Mexridin Sindarovich , kafedra dotsent v. b.	
Banklarda moliyaviy resurslarni boshqarishning ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi.....	106
Ortiqov Uyg'un Davlatovich , kafedra dotsenti, i.f.n.	
Зарубежный опыт в области цифровизации цепочки поставок продуктов питания	115
Марданова Барно Асатуллоевна , докторант	
Environmental culture and building the ecosystem performance: An empirical analysis from Uzbekistan.....	119
Aziz Zikriyoev , PhD	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya va raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	129
Kambarova Sh. M. i.f.b.f.d. PhD	



Xalqaro dividend siyosati tajribalarida "S&P 500 dividend aristocrats" amaliyoti va uni milliy fond bozorida qo'llash imkoniyatlari.....	134
Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna , dotsent	
Yirik sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirish yo'llari	139
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich , i. f. b. f. d. (PhD), dotsent; Saotaliyeva Nozima Isomiddinovna , talaba	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	147
Norov Akbar Ruzimamatovich	
O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlari tahlili	151
Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich , i.f.f.d.(PhD)	
Aholining tadbirkorlik faolligini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli	158
Xudayarova Maftuna Shavkatovna , tayanch doktorant	
Elektron tijoratni samarali tashkil etishda raqamli platformalarning yaratilish texnologiyasi	164
Karimova Shirin Zoxid qizi , tayanch doktorant	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali aholi bandligini ta'minlash	168
Shakirova Nigora Axralovna , kafedra dotsenti v.b.	
Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanini harakatlantiruvchi omili sifatida	172
Raximbayev Akmal Azatboyevich , mustaqil tadqiqotchi	
Overview of Environmental Management in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Protected Areas and Waste Management.....	177
Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna , PhD	
Obligatsiyalar bozorining paydo bo'lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati	182
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li , tayanch doktorant	
Iqtisodiy subyektlarga soliq yukini hisoblashning ahamiyati va zarurati.....	186
Abduturovov Jasurbek Nozimjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	195
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotida sug'urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi.....	199
Abdutarapova Dildora Farxodjon qizi , tayanch doktorant	
Assotsiativ qoidalar va bozor savatlarining tahlili	205
Sh. B. Rajabov; Sadinov Aziz Ziyadullayevich , 3 st year doctoral student	
Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma'muriyatchiligi faoliyati tahlili.....	210
Tashmuxeimedova Yayra , tadqiqotchi	
Exploring the Integration of Management and Marketing Strategies in Higher Education Institutions: Addressing Crucial Gaps for Enhanced Organizational Performance.....	213
Rakhimova Gulnoza , Teacher	
Особенности научной биографии художника Урала Тансыкбаева (на материале эпистолярного наследия).....	218
Искендир Аккуралай Абдиуалиевна , докторант	
Raqamli iqtisodiyot: milliy iqtisodiyot drayveri	222
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna , kafedra dotsenti; Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	228
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Таргетирование инфляции в Узбекистане: предпосылки применения и первые итоги	233
Рашидов Рахимжон Искандарович , в.и.о доцента; Якубова Шамшинур Шухратовна , к.э.н., доцент, докторант (DSc)	
O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta'minlashda sug'urtaning o'rni	240
Nomozova Qumri Isoyevna , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	248
Nazarov Qilich Xolmuradovich , kafedra assistenti	
Bank moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlarning o'rni	255
Akbarov Behzodhon Ulug'bek o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning dolzarb masalalari.....	262
Do'sanov Doniyor , magistr	



Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar	269
N. N. Ro'ziyev	
Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan.....	277
Sattorova Nasiba G'anijon qizi, Teacher	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining zamonaviy holati.....	284
Murodova Dilnoza Choriyevna, PhD	
Kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish	288
Gadoyev So'hrob Jumakulovich, mustaqil tadqiqotchi	
Korxonalarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish xususiyatlari.....	295
M. A. Saparova, talaba	
Приоритетные направления модернизации системы подготовки туристских кадров.....	299
Очилова Хилола Фармоновна, к.э.н., доцент	
Improving the use of competitive strategies in the management of sewing and knitting enterprises during green development	304
Vafoyeva Dilafruz, Teacher	
O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari	311
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, katta o'qituvchisi, PhD	
O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy statistik usullaridagi tahlili	316
Kutbitdinova Muhayyoxon Inoyatovna, tayanch doktorant	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatida CRM strategiyalaridan foydalanish yo'llari	323
Xalilova Nafisa Komilovna, magistrant	
Ko'zi o'z shaxslarni ish bilan ta'minlashni qonunchilik vositasida tartibga solishdagi xorijiy tajriba	327
Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li, tayanch doktorant	
Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров	334
Джурабаев Отабек Джурабаевич, доцент кафедры	
Необходимость управления активами и пассивами современными банками Узбекистана.....	341
Фаттахова Муниса Абдухамитовна	
Transport logistika xizmatini eksportni takomillashtirishga ta'siri	349
Jumabayeva Akmole Sheraliyevich, magistrant	
Цифровая валюта: возможные последствия вывода из обращения наличных денег	354
Бахромов Мирзаахмад Рустам угли, студент; Абдикаримова Динара Рустамхановна, научный руководитель, д. э. н. (DSc)	
Systematic mapping study of higher education in green development context.....	361
Asqarova Feruza Abdullaevna, Senior Teacher	
O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari	368
Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li, kafedra o'qituvchisi; Shaymanova Nigora Yusupovna, tayanch doktoranti	
Особенности подготовки юных футболистов на этапах начальной подготовки, спортивно – оздоровительном и групп начальной специализации.....	373
Д. К. Исмагилов, кандидат педагогических наук, доцент	
Optimizing Financial Resources Management in Treasury Systems for Sustainable Green Development.....	377
Shodmonkulova Shahlo, PhD student	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning xorij davlatlar tajribasi	384
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Bank tizimida resurs bazasini mustahkamlash yo'llari.....	390
Voxidov Oybek Rozikovich, mustaqil tadqiqotchisi	
Integrating Career-Oriented Communication Competences in English Language Teaching for Future Specialists in Higher Education Institutions: A Catalyst for Green Economy	398
Rajapov Sulaymon Nuraddin Ugli, Teacher	
Tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash istiqbollari	406
Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna, mustaqil izlanuvchi (PhD)	



BANKLARDA MOLIYAVIY RESURSLARNI BOSHQARISHNING AYRIM RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJIRIBASI

Ortiqov Uyg'un Davlatovich

Toshkent moliya instituti "Bank hisobi va audit kafedrası" dotsenti,
i.f.n.

Annotatsiya: Mazkur maqolada banklarda moliyaviy resurslarni shakllantirish va boshqarishda rivojlangan mamlakatlari tajribasi o'rganilgan va asosiy ko'rsatkichlar tahlili ko'rib chiqilgan. Tijorat banklari moliyaviy resurslarni boshqarishning nazariy jihatlari, boshqarishning zarurligi va o'ziga xos jihatlari hamda boshqa qator jihatlari atroficha o'rganildi va tadqiq etildi. Mazkur maqolada ayrim rivojlangan mamlakatlar, xususan AQSh, Xitoy kabi mamlakatlar tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarish tajribasi va rivojlanish xususiyatlari borasida tadqiqot ishini davom ettiramiz. Rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida resurslarni jalb etish holatini taqqoslama tarzda o'rganish respublikamiz tijorat banklari resurslarini samarali boshqarish yuzasidan chora-tadbirlar va tegishli siyosatni ishlab chiqishda muhim hisoblanadi.

Tadqiqot material va metodlariga ko'ra mavzu yuzasidan bir qator xorijiy hamda mamlakatimizning iqtisodchi-olimlari tomonidan berilgan ta'riflar hamda fikrlari o'rganilib, muallif tomonidan sharhlanib ularning mazmuni ochib berilgan.

Shuningdek maqolada O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarish bo'yicha normativ huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqishda, tijorat banklarida aktivlarni boshqarishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish borasida taklif va amaliy tavsiyalar berilgan.

Rivojlangan mamlakatlari tajribasini o'rganish davomida mamlakatimiz tijorat banklarida moliyaviy resurslarni boshqarish, ularni boshqarishning qulay bo'lgan usullarini qo'llashga doir nazariy va amaliy bilimlarni kengaytirish yo'llari o'rganilib, iqtisodiyot yo'nalishlaridagi oliy o'quv yurtlarida bank faoliyati bilan bog'liq fanlarni o'qitish, o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'lanmalarni tayyorlash, shu bilan birga tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar uchun manba sifatida keng foydalanish masalalari bo'yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, resurs, aktiv, majburiyat, depozit, kapital, investitsiya, jalb qilingan mablag', reguliyativ kapital, qimmatli qog'ozlar.

ОПЫТ В НЕКОТОРЫХ РАЗВИТЫХ СТРАНАХ В УПРАВЛЕНИИ ФИНАНСОВЫМИ СРЕДСТВАМИ В БАНКАХ

Аннотация: В данной статье изучен опыт развитых стран по формированию и управлению финансовыми ресурсами в банках и рассмотрен анализ основных показателей. Были тщательно изучены и исследованы теоретические аспекты управления финансовыми ресурсами коммерческих банков, необходимость и особенности управления и ряд других аспектов. В данной статье мы продолжим исследование опыта и особенностей развития коммерческих банков в некоторых развитых странах, особенно в США и Китае. Сравнительное изучение состояния привлечения ресурсов в банковской практике развитых стран имеет важное значение при разработке мер и соответствующей политики, связанных с эффективным управлением ресурсами коммерческих банков нашей республики.

По материалам и методам исследования изучены определения и мнения, данные рядом зарубежных и отечественных экономистов-ученых по теме, и автором объяснено их значение. Кроме того, в статье приведены предложения и практические рекомендации по разработке проекта нормативно-правового документа по управлению финансовыми ресурсами коммерческих банков Республики Узбекистан, и разработке программы мероприятий, направленных на управление активами в коммерческих банках.

В ходе изучения опыта развитых стран, путей расширения теоретических и практических знаний по управлению финансовыми ресурсами в коммерческих банках нашей страны, использования удобных методов их управления, преподавания предметов, связанных с банковской деятельностью, в высших учебных заведениях по специальности экономики, подготовка учебных программ, учебников и учебных пособий, тем самым наряду с предложениями по вопросам широкого использования в качестве ресурса для исследователей, проводящих научные исследования по теме исследования.

Ключевые слова: коммерческий банк, ресурс, актив, пассив, депозит, капитал, инвестиции, привлеченные средства, регулятивный капитал, ценные бумаги.



EXPERIENCE IN SOME OF DEVELOPED COUNTRIES MANAGEMENT OF FINANCIAL RESOURCES IN BANKS

Abstract: In this article, the experience of developed countries in the formation and management of financial resources in banks is studied and the analysis of the main indicators is considered. The theoretical aspects of financial resources management of commercial banks, the necessity and specific aspects of management and a number of other aspects were thoroughly studied and researched. In this article, we will continue research on the experience and development characteristics of commercial banks in some developed countries, especially the USA and China. A comparative study of the state of attracting resources in the banking practice of developed countries is important in the development of measures and relevant policies related to the effective management of the resources of commercial banks of our republic.

According to the research materials and methods, the definitions and opinions given by a number of foreign and domestic economists-scientists on the topic were studied, and the author explained their meaning. In addition, the article provides proposals and practical recommendations for the development of a draft regulatory legal document on the management of financial resources of commercial banks of the Republic of Uzbekistan, and the development of a program of measures aimed at managing assets in commercial banks.

During the study of the experience of developed countries, the ways of expanding theoretical and practical knowledge on the management of financial resources in commercial banks of our country, the use of convenient methods of their management, teaching of subjects related to banking activities, preparation of training programs, textbooks and training manuals in higher educational institutions in the fields of economy were studied. along with suggestions on issues of wide use as a resource for researchers conducting scientific research on the research topic.

Key words: commercial bank, resource, asset, liability, deposit, capital, investment, raised funds, regulatory capital, securities.

KIRISH

Banklarda moliyaviy resurslarni shakllantirish va boshqarishda doimo ularning daromadliligi va likvidliligi degan bozor unsuri faoliyat ko'rsatadi. Tijorat banklari moliyaviy resurslarni shakllantirish va ularni daromadliligini ta'minlash bilan bir qatorda banklar likvidliligini yo'qotmagan holda – o'z mijozlari va kontragentlari oldidagi majburiyatlarini bajararishi zarurdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF–5992-son "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida tijorat banklari kredit portfelini va ular faoliyatidagi risklarni boshqarish sifatini oshirish mamlakat bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan ^[1]. So'nggi yillarda aholining banklarga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlash, bank aktivlari likvidliligi, to'lovga qobiliyatligi va barqarorligini ta'minlash borasida ulkan ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Respublikamiz banklarida moliyaviy resurslarni shakllantirish va boshqarish bilan bog'liq bo'lgan bir qator dolzarb muammolar mavjud. Xususan, Respublikamizda pandemiya sababli banklardagi muammoli kreditlarning (NPL) jami kreditlardagi ulushi 5–6 foizgacha keskin ko'tarildi. Pandemiya bilan bir qatorda davlat dasturlari asosida kreditlash va banklar tomonidan muammoli kreditlar hisobini yuritishning takomillashtirilishi natijasida muammoli kreditlar miqdori sezilarli o'sdi. 2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra, O'zbekistonning muammoli kreditlar ulushi (4,9 foiz) Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari (5,9 foiz) hamda Markaziy Osiyo va Kavkaz mamlakatlari (5,2 foiz) bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan pastroq bo'ldi. Tarmoqlar qirqimida muammoli kreditlar sanoat va qishloq xo'jaligida sezilarli oshgan ^[2].

Shuningdek, (Basel Committee on Banking Supervision. (2021) bank nazorati bo'yicha xalqaro Bazel qo'mitasining Bazel–3 talablariga asosan, bank aktivlari likvidliligiga, jumladan, tijorat banklari likvidliligiga alohida e'tibor karatilgan ^[3]. Xalqaro Bazel qo'mitasining tavsiyalariga asosan tijorat banklari likvidliligini baholashda yangi me'yoriy ko'rsatkichlar joriy qilindi. Jumladan, joriy likvidlilik va leveraj ko'rsatkichidan tashqari tijorat banklari uchun – likvidlilikni qoplash me'yoriy koeffitsiyenti va sof barqarorlashtirish me'yoriy koeffitsiyenti joriy qilindi. Markaziy bank tijorat banklari tomonidan ushbu me'yorlarni bajarishini ta'minlash orqali banklarning likvidliligi hamda bank aktivlarining likvidliligini o'rnatilgan me'yor darajasida nazorat qilish imkoni mavjud bo'ladi.

Bank aktivlari likvidliligi barqaror bo'lishi bank mijozlarining bankka bo'lgan ishonchini ortishiga va shu orqali bank tizimida moliyaviy mablag'larning oqimini kengayishiga olib keladi. Bank aktivlari likvidliligi nobarqaror bo'lgan holatda mijozlarning banklarga bo'lgan ishonchi kamayib, ular o'z mablag'larini banklardan olib chiqib ketishiga sabab bo'ladi. Bu esa, iqtisodiyotda bankdan tashqari aylanmalarni oshishiga olib keladi.

Shu sababli ham bank aktivlari likvidliligiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganib chiqish lozim. Har bir omilning bank aktivlari likvidliligiga ta'siri qanday darajada ekanligi, qaysi omillarni o'zgartirish orqali eng yaxshi natijalarga erishish mumkinligi bo'yicha aniq tahlillarni amalga oshirish kerak bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy adabiyotlarda bank aktivlari likvidliligiga iqtisodchilar tomonidan deyarli bir xil ta'rif beriladi. Jumladan, bank aktivlari likvidliligi (Yensu Joseph, Hadrat Yusif, 2021) bank aktivlarining tez pulga aylanish darajasidir ^[4].



Bank boshqaruvi va bank tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlar (Farak, Harland, va Nixon, (2013) to'g'risida izlanishlarda esa bank aktivlari likvidligiga qulay bahoda, talab qilingan miqdorda va kerakli vaqtda likvid aktivlarni topa olish qobiliyati deb ta'rif berilgan ^[5].

AQShlik taniqli iqtisodchi olim J. Sinkining fikriga ko'ra, tijorat banklari likvidligini ta'minlashda federal fondlar, depozit sertifikatlari kabi aktivlarini sotish va Repobitmlaridan keng ko'lamda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi, bu esa, ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanganligi va kutilayotgan daromad nazariyasini amaliyotda qo'llanilayotganligi bilan izohlanadi ^[6].

J. Sinkining ushbu xulosasi respublikamiz bank amaliyoti uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Bue-sa, respublikamizda qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanmaganligi va tijorat banklarining yuqori likvidli qim-matli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarining brutto aktivlar hajmidagi salmog'ining kichik ekanligi bilan izohla-nadi. Shusababli, yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida mamlakat fond bozorida operatsiyalarning yillik hajmini hozirgi 200 mln. AQSh dollaridan 2026-yilga borib 7 mlrd. AQSh dollariga yetkazish vazifasi belgilangan ^[7].

Rossiya banklari likvidligini qanday qilib tiklash (Prokofyeva, 2019) bo'yicha ham izlanishlar olib borilgan bo'lib, o'z tadqiqotida bank likvidligiga ta'sir qiluvchi omillarni ichki va tashqi o'laroq ikkiga o'rgangan, hamda bank likvidligi tushunchasiga yanada kengroq yondashgan holda bankning qarzi, moliyaviy va balansdan tash-qari majburiyatlarini bajara olish qobiliyati deb ta'rif bergan ^[8].

Rossiyalik iqtisodchi olimlardan (Abdullazanova, Kalacheva 2020) bank aktivlari likvidligiga asosiy e'tibor qaratgan holda amalda bank likvidlik talabini doimo mavjud aktivlari hisobiga emas, balki banklararo kredit resurslari bozorida resurs jalb etgan holda ham bajarishi mumkinligi to'g'risida aytadi va bank likvidligi umum-lashgan ko'rsatkichlardan biri bo'lib, bank faoliyati ishonchligini ko'rsatadi hamda agar mijozlar oldidagi ma-jburiyatlarini o'z vaqtida va hech qanday yo'qotishlarsiz bajara olsa, bank likvid hisoblanadi deya ta'rif beradi ^[9].

Bank aktivlari likvidligi bank tomonidan o'zining joriy va kelajakdagi majburiyat va to'lovlarini hamda kredit olish borasidagi mijozlarning talablarini o'z vaqtida bajarish uchun muhimdir.

Endi bank likvidligini boshqarish to'g'risida olib borilgan ilmiy izlanishlar va nazariyalar to'g'risida to'xtaladigan bo'lsak, ushbu mavzuda ham xorijiy va mamlakatimiz olimlari tomonidan ilmiy qarashlar va nazariyalar mavjud.

Iqtisodiyotda moliyaviy inqirozlarning bir necha-marta takrorlanishi oqibatida banklar o'sib boruvchi likvidli-lik riski bilan to'qnashadi va bu o'z navbatida banklar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Ana shunday paytda bank aktivlarida likvidlik riski yuzaga kelganda, likvidlik holatini boshqarish jarayonida likvidli-likning muvozanatda bo'lishi yoki salbiy holatga tushib qolishida, birgina muhim strategik qaror qabul qilinishi orqali bank likvidlik ahvolining yomonlashuvini oldini olish va majburiyatlarni to'liq bajarishiga erishish mumkin (Mukherjee, Pana, 2018) ^[10].

Bank boshqaruvi doirasida bank aktivlari likvidligini boshqarish (Bakhriddin Berdiyarov (2021) bo'yicha yozilgan maqolada ham bank aktivlari likvidligini boshqarishning mavjud strategiyalari yoritib berilgan ^[11]. Ush-bu maqolada likvidlikni boshqarish aktivlarni boshqarish, faqat passivlarni boshqarish hamda bir vaqtning o'zida ikkala, ya'ni aktivlarni va passivlarni boshqarishga asoslanganligi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, har bir nazorat usullari o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega ekanligini inobatga olib, har bir bank ko'rsatayotgan operatsiyalari harakteridan kelib chiqqan holda qo'llanishi to'g'risida fikr bildirilgan.

Odatda likvidlikni boshqarishning ushbu strategiyasi aktivlarning transformatsiyasi deb ataladi, chunki pul ko'rinishida bo'lmagan aktivlar naqd pulga aylanishi hisobiga likvid mablag'lar yuzaga keladi.

Bank tizimi likvidligi (Challoumis, 2019) yuqori likvidli mablag'lar hajmi, to'lov tizimining uzluksiz ishlashi, markaziy bank tomonidan umumiy nazoratni o'rnatilganligi, shuningdek, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning barqarorligi bilan ta'minlanadi ^[12].

Banklar faoliyatining samaradorligi – mijozlar oldidagi majburiyatlarni o'z vaqtida bajara olishi bilan belgi-lanadi. Tarixdan ma'lumki (Abdullayeva 2003) pul almashtiruvchi sarroflar o'z majburiyati va qarzlarni to'lay ol-masa yoki topshiriqlarni bajara olmasa, ishonchni oqlamasa va o'z ishiga ma'suliyatsizlik qilsa, ularning stollari sindirilgan va "banco rotto", ya'ni bankrot deb e'lon qilingan ^[13].

Bank likvidligi bo'yicha risklarning ortishiga ta'sir qiluvchi bir qancha omillar mavjudki, bu omillar bank likvidligiga alohida ahamiyat berishni va bank likvidligi bo'yicha riskni doimiy ravishda kuzatib borishni talab qiladi. Shu sababli banklar o'z daromadidan kechib bo'lsa ham, likvidlikni saqlab turishga majbur.

O'z navbatida, resurslar banklarning daromadligini oshirish maqsadiga yo'naltirilsa, unda bu bankning likvidligiga ta'sir ko'rsatadi. Demak, banklarning likvidligi va daromadligi o'zaro teskari mutanosiblikda namo-yon bo'ladi.

Bank aktivlari likvidligiga tijorat banklari likvidligi, markaziy bank monetar siyosat instrumentlari foyda-langanlik darajasi va markaziy bank nazorat funksiyalarining samaradorligi ta'sir ko'rsatadi.

Bank aktivlari likvidligini, bu orqali esa bank tizimi likvidligini ta'minlashda markaziy banklar muhim rol o'ynaydi. Ular o'zlarining monetar vositalari orqali banklarning likvidligiga ta'sir ko'rsatadi, tijorat banklari uchun likvidlik me'yorlarini belgilaydi va uni bajarishi ustidan monitoringini o'rnatadi.



Shu boisdan, tijorat banklari resurslari mohiyatini ta'riflaganda nafaqat ularning qaysi manbalar hisobidan tashkil qilinganligini e'tiborga olish, balki u mablag'lar bankning maqsadli faoliyati uchun zarur va muhimligini hamda ularning samaradorligiga erishishni ham ko'zda tutish lozim.

MATERIAL VA METOD

Maqolada tahlil qilingan ma'lumotlar asosan tijorat banklarining yillik hisobot ma'lumotlari, shuningdek Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlaridan olindi.

Ilmiy tadqiqotni bajarishda statistik guruhlash, induksiya va deduksiya, ekspert baholash, qiyosiy va trendli tahlil usullaridan foydalanildi.

Shuningdek, maqolada analitik tadqiqot sifatida bo'ylama kesim (Longitudinal) tadqiqotlari metodologiyasidan foydalangan holda tahlil birligi sifatida obyekt tanlab, ma'lumotlarni bir necha yil davomida o'rganish orqali tadqiqot muammosini o'zgarish dinamikasini tahlil qilindi.

NATIJALAR

Rivojlangan mamlakatlar, xususan AQSh, Xitoy kabi mamlakatlar tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarish tajribasi va rivojlanish xususiyatlari borasida tadqiqot ishini davom ettiramiz. Rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida resurslarni jalb etish holatini taqqoslama tarzda o'rganish respublikamiz tijorat banklari resurslarini samarali boshqarish yuzasidan chora-tadbirlar va tegishli siyosatni ishlab chiqishda muhim hisoblanadi.

E'tirof etish lozim, rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida bank resurslarini boshqarish yuzasidan ma'lum darajada tegishli tajriba va andozalar mavjudki, ularning ijobiy jihatlari mamlakatimiz tijorat banklariga tatbiq etish foydadan holi bo'lmaydi. Lekin, shuni aytish mumkinki, rivojlangan mamlakatlarda ham tijorat banklari resurslarini boshqarish masalasi 1980-yillardan boshlab dolzarb vazifalardan biri sifatida-maydonga chiqdi va hozirgi paytda doimiy takomillashib borish jarayonini boshidan kechirmoqda ^[14].

AQShda tijorat banklarida resurslarni boshqarish bank sanoatining murakkab tabiati tufayli yuzaga keladigan turli masalalar va muammolarni o'z ichiga oladi. Ushbu qiyinchiliklar banklarning samaradorligi, rentabelligi va umumiy faoliyatiga ta'sir qilishi mumkin. Biz dastlab AQShdagi tijorat banklarida resurslarni boshqarishda mavjud asosiy muammolar o'rganamiz va ularni hal qilish bo'yicha potensial strategiyalarni muhokama qilamiz. Shundan so'ng AQSh banklaridan ayrimlarini moliyaviy hisobotlarining amaliy jihatlari bilan tanishib chiqamiz. Xususan, AQShda ayni paytlarda tijorat banklari resurslarini boshqarishda quyidagilar dolzarb hisoblanadi.

Kapitalni boshqarish bilan bog'liq jarayon. Tijorat banklari uchun muhim muammolardan biri bu o'z kapitalini samarali boshqarishdir. Banklar potensial yo'qotishlarni oldini olish, tartibga solish talablariga javob berish va biznes o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun etarli kapitalga ega bo'lishlari zarur. Biroq, tavakkalchilik va kapital o'rtasidagi to'g'ri muvozanatni o'rnatish juda nozik vazifadir. Banklar optimal kapital tuzilmasini saqlab qolish uchun ularning risk profillarini, iqtisodiy sharoitlarini va kapitalning etarlilik koeffitsiyentlarini diqqat bilan baholashlari kerak. Quyidagi rasmda AQSh tijorat banklari kapitali qaytimi haqida 2003-yil 1-chorakdan 2022-yil 3-chorakda erishilgan natijalar haqida ma'lumotlar keltirilgan.



1-rasm: AQSh tijorat banklari kapital qaytimi (ROE) haqida 2003–2022-yillar choraklar kesimida ma'lumot ^[15].



Rasm ma'lumotlaridan kuzatish mumkinki, AQSh tijorat banklari kapital qaytimi o'rtacha 10 foiz atrofida bo'lgan, biroq bu ko'rsatkich tebranib turish holatiga ega bo'lgan. Masalan, 2003-yil 4 chorakda eng yuqori darajani, ya'ni taxminan 15 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2009-yil 1 chorakda minus 22 foizga tushib yetgan. Albatta, buni 2008-yilda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi natijalari sifatida baholash mumkin. Kapital qatimi, AQSh banklarida 2011-yildan so'ng barqarorlashgan va 2022-yil 3 chorakda 10 foiz darajasini tashkil etgan.

Likvidlikni boshqarish bilan bog'liq jarayon. Tijorat banklarida likvidlikni ta'minlash ularining uzluksiz faoliyat yuritishlari uchun hal qiluvchi muhim moliyaviy ahamiyatga ega. Likvidlik deganda bankning qisqa muddatli majburiyatlarini katta xarajatlarsiz bajarish qobiliyati tushuniladi. Banklar likvidlikni boshqarishda pul oqimlaridagi noaniqliklar, depozitlarni to'satdan yechib olish yoki bozor sharoitidagi kutilmagan o'zgarishlar tufayli qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Likvidlik tavakkalchiligini samarali boshqarish bankning o'z majburiyatlarini bajarishini ta'minlash uchun ishonchli favqulodda vaziyatlar rejalarini ishlab chiqish, likvidlik buferlarini yaratish va pul oqimlarini yaqindan kuzatib borishni o'z ichiga oladi.

AQSh bank tizimida likvidlikni ta'minlashda bank-moliya korporatsiyalarining moliyaviy resurslarni jalb qilish borasidagi tajribasidan kengroq o'rganish lozim. Quyidagi jadvalda AQSh bank tizimining jalb qilingan resurslari tarkibi xususida ma'lumotlar keltirilgan.

1-jadval: AQSh bank tizimi jalb qilingan mablag'larining tarkibi va dinamikasi, (1-yanvar holatiga, foiz hisobida) ^[16]

Manbalar	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Muddatsiz depozitlar	6,1	6,2	7,5	6,5	5,7
Muddatli va jamg'arma depozitlar	62,3	61,2	61,2	56,3	61,3
Xalqaro majburiyatlar	10,2	13,0	12,3	19,7	13,5
Hukumatning depozitlari	0,9	0,7	0,9	1,3	0,9
Banklardan olingan kreditlar	0,7	0,9	0,6	0,9	0,9
Nobank moliyaviy institutlarga maburiyatlar	10,1	8,5	7,6	4,5	8,0
Banklarning kapitali	9,8	9,5	10,0	10,8	9,8
Jami:	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Jadval ma'lumotlaridan kuzatish mumkinki, AQSh bank tizimi resurslari tarkibida depozitlarning ulushi juda yuqori ulushni tashkil etib, depozitlar tarkibida esa muddatli va jamg'arma depozitlar qariyb 60 foizdan yuqori ulushni tashkil etmoqda. Masalan, bank tizimida jalb qilingan muddatli va jamg'arma depozitlar 2017-yil 1-yanvar holatiga 62,3 foizni tashkil etgan bo'lsa 2022-yil 1-yanvar holatiga ushbu ko'rsatkich 61,3 foizdan iborat bo'lgan. AQSh bank tizimi jalb qilingan mablag'lari tarkibida keyingi asosiy manba xalqaro majburiyatlar hissasiga to'g'ri kelmoqda, bu manba asosan AQSh banklari xorijiy mamlakatlarning tijorat banklari uchun ochgan vakillik hisobvaraqlarida saqlanayotgan valyutalar hisobidan shakllangan.

AQSh bank tizimida resurslarni jalb qilish bilan bog'liq tajribasidan kelib chiqib, mahalliy bank tizimida quyidagi tajribalarni joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- uzoq muddatli moliyaviy resurslarning ulushi sezilarli darajada yuqori ekanligi ularning likvidligini ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- banklararo kreditlar hisobidan shakllantirilgan moliyaviy resurslar hajmi sezilarsiz bo'lib, ushbu ijobiy holat hisoblanadi, chunki ushbu manbalar hisobidan jalb qilingan mablag'lara odatda qimmat va muddati bo'yicha unchalik uzoq vaqtga jlb qilinmaydi;
- bankning majburiyatlarini bajarish bo'yicha talablar ham unchalik darajada yuqori emasligini talab qilib olinguncha mablag'lar ulushidan sezish mumkin, bu holat ham banklarning moliyaviy resurslarni boshqarishda samarali ta'sir ko'rsatish vositasi hisoblanadi.

Aktivlar va passivlarni boshqarish (ALM) bilan bog'liq jarayon: Tijorat banklari rentabellikni optimallashtirish va risklarni kamaytirish uchun o'z aktivlari va majburiyatlarini boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Aktiv va passiv nomuvofiqligi banklarning qisqa muddatli majburiyatlari va uzoq muddatli aktivlari mavjud bo'lganda yoki aksincha yuzaga kelishi mumkin. Ushbu nomutanosiblik banklarni foiz stavkasi riski,



moliyalashtirish riski va likvidlik riskiga duchor qiladi. Banklar aktiv va majburiyat muddatlarini moslashtirish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va risklarni himoya qilish uchun derivativlardan foydalanishni o'z ichiga olgan ishonchli ALM amaliyotlarini qo'llashlari kerak.

Kredit tavakkalchiligini boshqarish jarayoni. Kredit tavakkalchiligi tijorat banklari uchun jiddiy muammo hisoblanadi, chunki u kreditlar bo'yicha qarzlarni to'lamay qolishiga, ishlamaydigan aktivlarga va moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Banklar qarz oluvchilarning kreditga layoqatligini samarali baholashlari, kredit portfellarini monitoring qilishlari va tegishli risklarni kamaytirish strategiyalarini amalga oshirishlari kerak. Kredit reytingi modellari, garovni baholash va qat'iy kreditni tasdiqlash jarayonlari kabi risklarni boshqarish usullari banklarga kredit xavfini kamaytirishga yordam beradi.

Reglamentga muvofiqlik, ya'ni me'yoriy hujjatlar talabini bajarish jarayoni. AQShda tijorat banklari yuqori darajada tartibga solinadigan muhitda ishlaydi. Banklar ko'plab me'yoriy hujjatlarga, jumladan, kapitalning yetariligi talablari, pul yuvishga qarshi qoidalari, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunlar va ma'lumotlar maxfiyligi qoidalariga rioya qilishlari kerak. Ushbu qoidalarga rioya qilishni ta'minlash muhim muammo hisoblanadi, chunki rioya qilmaslik katta jarimalar va obro'ga putur etkazishi mumkin. Banklar tartibga soluvchi talablarni qondirish uchun mustahkam muvofiqlik tizimlari, ichki nazorat va xodimlarni o'qitishga sarmoya kiritishlari kerak.

Texnologik taraqqiyot jarayoni. Texnologik taraqqiyotning jadal sur'atlari tijorat banklari uchun ham imkoniyatlar, ham qiyinchiliklar tug'diradi. Raqamli transformatsiya, fintech innovatsiyalari va kriptovalyutalarning amaliyotga kirib kelishi an'anaviy bank modellari va ishlash qoidalariga o'zining ta'sirini o'tkazdi. Banklar mijozlarning o'zgaruvchan xohish va istaklariga moslashishi, innovatsion texnologiyalarni joriy etishi va raqobatbardosh bo'lish uchun kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirishi kerak. Biroq, texnologik taraqqiyot banklar samarali hal qilishlari kerak bo'lgan kiber tahdidlar, ma'lumotlarning buzilishi va operatsion uzilishlar kabi xavflarni ham keltirib chiqaradi. Bularning barchasi tijorat banklari moliyaviy raseurslarini boshqarish jarayonini murakkablashtiradi va doimiy ravishda bu borada tegishli ishlarni amalga oshirishni talab etadi.

Iste'dodlarni, ya'ni talantli xodimlarni ishga qabul qilish va boshqarish jarayoni. Malakali mutaxassislarni jalb qilish va saqlab qolish tijorat banklari uchun juda muhim muammodir. Bank sohasi risklarni boshqarish, muvofiqlik, moliyaviy tahlil va texnologiya bo'yicha tajribaga ega bo'lgan shaxslarni talab qiladi. Biroq, iste'dodlarni jalb qilish va ularni raqobatbardosh mehnat bozorida saqlab qolish qiyin bo'lishi mumkin. Banklar raqobatbardosh kompensatsiya paketlarini taklif qilishlari, doimiy o'qitish va rivojlanish imkoniyatlarini taqdim etishlari va yuqori iste'dodlarni jalb qilish va saqlab qolish uchun ijobiy ish muhitini yaratishlari kerak.

Mijozlarning hoxish istak va talabini o'zgarish jarayoni: Mijozlarning talablari texnologik taraqqiyot va bozor dinamikasining o'zgarishi bilan tez rivojlanmoqda. Mijozlar endi uzluksiz raqamli bank tajribasi, mobil ilovalardagi shaxsiy kabinet xizmatlar va ularning hisoblariga real vaqt rejimida kirishni kutishadi. Ushbu umidlarni qondirish banklardan ilg'or raqamli platformalarga sarmoya kiritishni, mijozlarni jalb qilish strategiyalarini yaxshilashni va shaxsiylashtirilgan moliyaviy yechimlarni taklif qilish uchun ma'lumotlar tahlilini qabul qilishni talab qiladi. Bank iste'molchilarining talablarini qondirmaslik mijozlarning yo'qolishiga va bozor ulushini yo'qotishga olib kelishi mumkin.

Biz yuqorida mamlakat bank tizimi deyarli to'liq bozor munosabatlari sharoitida amal qiladigan AQSh bank tizimida resurslarni boshqarishning umumiy jihatlarini, amaliyotdagi holati va ayrim muammoli jihatlarini ko'rib chiqdik.

Tadqiqot ishimizni yanada kengaytirish va xorij tajribasini yanada chuqurroq o'rganish maqsadida ayni paytda dunyoda yetakchi mamlakat maqomiga taboro kuchli da'vogarlik qilayotgan Xitoy xalq respublikasi (XXR) bank tizimida resurslarni boshqarish bilan bog'liq masalalarni atroflicha tadqiq etamiz.

Ta'kidlash joizki, XXRda bank tizimi asosan davlat mablag'lari hisobidan tashkil etilgan bo'lib, 2017–2018-yillarda dunyoning eng katta 10 banki ro'yxatidan Xitoyning uchta banki o'rin olgan. Mazkur tadqiqot doirasida 2017–2018-yillarda dunyoning eng kuchli 10 ta banki ro'yxatida ikkinchi o'rinda turadigan XXRning China Industrial and Commercial Banking (CICB), Xitoy Sanoat va tijorat banki (XSTB) moliyaviy holati va moliyaviy resurslarni boshqarishdagi imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz.

Ushbu bank 1984 yil 1-yanvarda mas'uliyati cheklangan jamiyat sifatida Xitoy Moliya vazirligi mablag'i hisobidan tashkil etilgan davlat tijorat bankidir. Bank davlat tijorat banki bo'lishiga qaramasdan, dunyodagi eng daromadli kompaniyalardan biri hisoblanadi va Forbes ma'lumotlariga ko'ra to'rtinchi o'rinni egallaydi. Dunyoning yirik va taniqli kompaniyalari ushbu bankning IPOlarini sotib olgan. Xususan, AQShning Goldman Sachs 5,75% ulushini 2,6 milliard AQSh dollariga sotib oldi, bu Goldman Sachs hozirgacha investitsiya qilgan eng katta summadir. Quyidagi jadvalda bankning moliyaviy holati haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

**2-jadval:** Xitoy Sanoat va tijorat banki aktivlari va passivlari tarkibi haqida ma'lumot, (1-yanvar holatiga, foiz hisobida) ^[16]

Balans tarkibi	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Kreditlar (4,45%)	58,7	58,8	59,8	61,2	61,6
Investitsiya (3,6%)	22,0	22,7	24,0	24,5	24,9
Markaziy bankka talablar (1,55%)	12,7	11,0	9,5	8,8	8,3
Boshqa banklarga talablar (3,12%)	6,5	7,5	6,7	5,4	5,2
Daromadli aktivlar jami	93,2	92,0	92,7	94,0	95,2
Daromadsiz aktivlar jami	8,3	9,5	8,8	7,7	6,6
Ehtimoliy yukotishlarga zaxira	-1,5	-1,6	-1,6	-1,7	-1,8
Jami aktivlar	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Muddatli depozitlar (1,59%)	72,4	70,9	69,9	70,5	72,1
Banklar va bosh. moliya inst. (2,44%)	10,0	9,0	9,1	9,5	10,0
Qimmatli qog'ozlar (3,56%)	3,2	3,5	3,2	3,1	3,0
Jami xarajatli majburiyatlar	85,5	83,5	82,2	83,0	85,1
Jami xarajatsiz majburiyatlar	6,5	7,1	6,5	5,7	5,4
Jami majburiyatlar	92,0	90,6	88,7	88,7	90,5
O'z mablag'lari (kapital)	8,0	9,4	11,3	11,3	9,5
Jami passivlar	100	100	100	100	100

Xitoy Sanoat va tijorat banki aktivlari va passivlari tarkibi bo'yicha keltirilgan ma'lumotlarga tayanib tahlil qiladigan bo'lsak, bankda moliyaviy resurslarni jalb qilish ularni joylashtirish juda samarali yo'lga qo'yilgan. Bu alabatta, tijorat bankida moliyaviy resurslarni samarali boshqarishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, tahlil etilayotgan 2018–2022-yillarda bankning jalb qilingan mablag'larning 7,2 foizdan ortig'i muddatli depozitlar hissasiga to'g'ri kelib, bankning jami xarajatli majburiyatlari o'rtacha 83,8 foizni tashkil etmoqda. Bundan ko'rinadiki, bankning likvidlikni bajarish bo'yicha deyarli muammolari mavjud emas, chunki bankning passivlari tarkibida jami xarajatsiz majburiyatlari 2018–2022-yillarda bor yo'g'i o'rtacha 6,2 foizdan iborat bo'lgan.

Tijorat banklari resurslarini samarali boshqarishga ularning aktivlarining sifati bevosita ta'sir qiladi. Bu bora-da bankning aktivlari tarkibini ko'radigan bo'lsak, tahlil qilinayotgan 2018–2022-yillar davomida kreditlarning ulushi 60,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, investitsiyalar ulushi shu davrda 23,8 foizdan iborat bo'lgan. Bu albatta, bankning aktivlari sifatining yuqoriligidan va samarali ravishda diversifikatsiya qilinganligi hisobidandir. E'tiborli jihati, bankning jalb qilingan moliyaviy resurslarining 93,3 foizi daromad keltiradigan aktivlarga joylashtirilgan.

Yuqorida qayd etilganlarga asosanib, XXR bank tizimida moliyaviy resurslarni boshqarish bo'yicha dolzarb hisoblangan muammolar mavjud emas desak noto'g'ri bo'ladi, jahon iqtisodiyotining globallasuvi, giyosiyosiy va giyoiqtisodiy jarayonlar ushbu mamlakat bank tizimida moliyaviy resurslarni boshqarishning o'ziga xos jihatlari joriy etish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda ularning ayrimlari ustida atroflicha to'xtalib o'tamiz. Xususan:

Mamlakat tijorat banklari faoliyatiga hukumatning ta'siri. Ta'kidlaganimizdek, Xitoyda davlat tomonidan boshqariladigan bank tizimi mavjud bo'lib, tijorat banklari ustidan sezilarli hukumat nazorati va ta'siri mavjud. Hukumat boshqa me'yoriy hujjatlar qatorida kreditlash maqsadlari, foiz stavkalari va kapitalga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. Tijorat banklari ko'pincha iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, ijtimoiy barqarorlik va strategik tarmoqlarni moliyalashtirish kabi davlat siyosatini qo'llab-quvvatlashda rol o'ynaydi.

Bank kapitalida davlat ishtirokining o'рни. Xitoyda ko'p sonli davlat tijorat banklari, jumladan, "katta to'rtlik" davlat banklari ("big four" state-owned banks (Bank of China, Industrial and Commercial Bank of China, China Construction Bank, and Agricultural Bank of China)) mavjud. Bu banklar davlat tomonidan keng qo'llab-quvvatlanadi va davlat siyosatini amalga oshirish uchun juda muhimdir. Ular ko'pincha imtiyozlarga ega bo'ladi va kichikroq tijorat banklariga qaraganda arzonroq mablag'lardan foydalanish imkoniyatiga ega. Biz mazkur tadqiqot doirasida o'rgangan Xitoy Sanoat va tijorat banki ham shular toifasidan hisoblanadi.



Kredit ajratish jarani va o'ziga xos xususiyatlari. Xitoydagi tijorat banklari ko'pincha muayyan sektorlar, mintaqalar yoki hukumat tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga asosiy urg'u beradi va bu o'zining tegishli samrasini beradi. Hukumat infratuzilma loyihalari, kichik va o'rta korxonalar (KO'B) va qishloqlarni rivojlantirish kabi kredit ajratishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash orqali kreditlashni boshqaradi. Ayrim hollarda kreditlashning bunday yo'naltirilgan yondashuvi ba'zan kreditning noto'g'ri taqsimlanishiga va banklar uchun potensial risklarga olib kelish holatlari ham bo'lib turadi.

Muammoli, to'lov muddati o'tgan ishlamaydigan kreditlar (NPL). Xitoy, ayniqsa, bundan 15–20 yil oldin muddati o'tgan kreditlar bilan bog'liq muammolarga duch keldi. Tijorat banklari yomon kreditlarning ularning moliyaviy holatiga va balansiga ta'sirini boshqarish orqali resurslarni samarali ishlashiga erishishi kerak edi. Hukumat ushbu muammoni hal qilish uchun turli xil chora-tadbirlarni amalga oshirdi, jumladan, qarzlarni qayta tuzish dasturlari, aktivlarni boshqarish kompaniyalari, kreditlarni tasniflash va zaxiralarni shakllantirish talablarini kuchaytirish.

Likvidlikni boshqarishdagi o'ziga xos jihatlari. Xitoy tijorat banklari depozit bazalarining katta hajmini va tartibga soluvchi talablarni hisobga olgan holda likvidlikni ehtiyotkorlik bilan boshqarishga jiddiy e'tibor beradi. Xitoy Markaziy banki bank tizimida barqarorlikni ta'minlash uchun majburiy zaxiralari, ochiq bozor operatsiyalari va doimiy kreditlash imkoniyatlari kabi likvidlikni boshqarish vositalarini joriy qildi.

Foiz stavkalarini liberallashtirish jarayoni. Xitoy ilgari eoriy etilgan nazorat qilinadigan stavkalardan uzoqlashib, hozirgi damda foiz stavkalari tizimini bosqichma-bosqich liberallashtirmoqda, ya'ni talab va taklif asosida joriy etish amaliyotiga o'tmoqda. Tijorat banklari endi kredit va depozit stavkalarini belgilashda ko'proq moslashuvchanlikka ega, ammo hukumat hali ham ma'lum ta'sirni saqlab qolmoqda. Ushbu liberallashtirish banklarning foiz stavkalari riskini boshqarish va rentabelligiga ta'sir qiladi.

Tijorat banklari kapitali yetarililigiga qo'yilgan talablar va ularni bajarilishi. Xitoy tijorat banklari kapitalning yetarililigining xalqaro me'yoriy standartlariga, masalan, Bazil III talablari va qoidalariga rioya qilishlari kerak. Xitoyning bank va sug'urta faoliyatini tartibga solish komissiyasi (XBSTSK) banklarning moliyaviy barqarorligi va barqarorligini ta'minlash uchun kapital talablarini belgilaydi. Hukumat, shuningdek, davlat banklari barqarorligini oshirish uchun kapital kiritishni qo'llab-quvvatlaydi.

Moliyaviy resurslarni jalb qilish va boshqarishda texnologiya va innovatsiyalarni qo'llab quvvatlash. Xitoy tijorat banklari o'z operatsiyalari va mijozlar tajribasini yaxshilash uchun texnologiya va raqamli innovatsiyalarni tobora ko'proq o'zlashtirmoqda. Alibaba's Ant Group and Tencent kabi fintech kompaniyalari va internet gigantlari moliyaviy sektorga kirib, an'anaviy banklarga qiyinchilik tug'diradi, bu o'z navbatida hukumatning ixtiyorida bo'lgan yirik davlat tijorat banklar texnologiyasiga sarmoya kiritishga va raqamli platformalarni rivojlantirishga majbur qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Xitoy bank tizimi murakkab, doimo rivojlanib boruvchi va hukumat siyosati va me'yoriy o'zgarishlarga duchor bo'ladi. Bu erda keltirilgan o'ziga xos xususiyatlar umumiy ko'rinishni beradi, ammo Xitoyning tijorat banklarida moliyaviy resurslarni boshqarishning barcha nozik jihatlari va usullarini qamrab ololmasligi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, rivojlangan mamlakatlarda tijorat banklari moliyaviy resurslarini boshqarish bo'yicha juda katta tajriba va ko'nikmaga ega bo'lsada bir vaqtning o'zida dunyoda kechayotgan giyosiyosiy va giyoiqtisodiy jarayonlar bu jarayonni doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab etadi, shu bilan birga bizning mamlakatimiz tijorat banklari uchun ularning bu borada bosib o'tgan yo'llari, qiyinchiliklari va muammolariga tayanib tegishli xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida bank resurslarini boshqarish yuzasidan ma'lum darajada tegishli tajriba va andozalar mavjudki, ularning ijobiy jihatlarni mamlakatimiz tijorat banklariga tatbiq etish foydadan holi bo'lmaydi;

AQShda ayni paytlarda tijorat banklari resurslarini boshqarishda quyidagilar dolzarb hisoblanadi: kapitalni boshqarish bilan bog'liq jarayon; likvidlikni boshqarish bilan bog'liq jarayoni; aktivlar va passivlarni boshqarish (ALM) bilan bog'liq jarayon; kredit tavakkalchiligini boshqarish jarayoni; reglamentga muvofiqlik, ya'ni me'yoriy hujjatlar talabini bajarish jarayoni; texnologik taraqqiyot jarayoni; iste'dodlarni, ya'ni talantli xodimlarni ishga qabul qilish va boshqarish jarayoni; mijozlarning hoxish istak va talabini o'zgarish jarayoni kabilar shular jumlasidandir.



AQSh bank tizimi resurslari tarkibida depozitlarning ulushi juda yuqori ulushni tashkil etib, depozitlar tarkibida esa muddatli va jamg'arma depozitlar qariyb 60 foizdan yuqori ulushni tashkil etadi. AQSh bank tizimida resurslarni boshqarishning ustuvor jihatlari:

- uzoq muddatli moliyaviy resurslarning ulushi sezilarli darajada yuqori ekanligi ularning likvidilini ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- banklararo kreditlar hisobidan shakllantirilgan moliyaviy resurslar hajmi sezilarsiz bo'lib, ushbu ijobiy holat hisoblanadi, chunki ushbu manbalar hisobidan jalb qilingan mablag'lara odatda qimmat va muddati bo'yicha unchalik uzoq vaqtga jlb qilinmaydi;
- bankning majburiyatlarini bajarish bo'yicha talablar ham unchalik darajada yuqori emasligini talab qilib olinguncha mablag'lar ulushidan sezish mumkin, bu holat ham banklarning moliyaviy resurslarni boshqarishda samarali ta'sir ko'rsatish vositasi hisoblanadi.

Xitoy tijorat banklarida moliyaviy resurslarni jalb qilish ularni joylashtirish juda samarali yo'lga qo'yilgan. Bu albatta, tijorat banklari resurslarini samarali boshqarishga ularning aktivlarining sifati bevosita ta'sir qiladi;

Xitoy banklarida resurslarni boshqarishda e'tiborli jihati kreditlar ulushi 60,0 foizni, investitsiyalar 23,8 foizni, jalb qilingan moliyaviy resurslarining 93,3 foizi daromad keltiradigan aktivlarga joylashtirilgan;

Xitoyda tijorat banklari 15–20 yil oldin muddati o'tgan kreditlar bilan bog'liq muammolarga duch keldi, buning asosiy sababi davlat tijorat banklari faoliyati, xususan kredit berish jarayoniga kuchli aralashuvi mavjud bo'lgan. Keyingi yillarda bu borada liberallashtirish jarayoni ketmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF–5992-son "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Moliyaviy barqarorlik sharhi 2022-yil I yarim yillik. www.cbu.uz
3. Basel Committee on Banking Supervision. (2021). Basel III: International framework for liquidity risk measurement, standards and monitoring. Switzerland: Bank for International Settlements
4. Yensu Joseph, Hadrat M. Yusif, Emmanuel Tetteh, George Asumadu, Daniel A. Atuilik. Main Determinans of Banks' Stability: Evidence from Commercial Banks in Ghana. *Journal of Finance and Economics*. 2021. Vol. 9. no. 2. P. 42–52.
5. Farag, M., Harland, D. & Nixon, D. (2013). Bank capital and liquidity. *Bank of England Quarterly Bulletin*, 53(3), 201–215.
6. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Паблишер, 2017. – с. 648.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli Farmoni. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida // *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 29.01.2022y., 06/22/60/0082 – son.
8. Прокофьева Е.Н. Ликвидность банковского сектора России в условиях нестабильности: тенденции формирования и последствия для экономики // *Вестник Северо-Осетинского государственного университета им. К. Л. Хетагурова*. 2019. № 2. С. 130–136.
9. Абдуллазанова К.З., Калачева Е.А. Анализ состояния ликвидности банковского сектора России // *Научные исследования XXI века*. 2020. № 1(3). С. 112–118.
10. Mukherjee, T. and Pana, E. (2018). The distribution of the Capital Purchase Program funds: Evidence from bank internal capital markets. *Financial Markets, Institutions & Instruments*, 27(4), pp.125–143.
11. Bakhridin Berdiyarov (2021). Uzbekistan in Banking Practice: Opportunities to Use Foreign Experience to Ensure Liquidity and Solvency of Commercial Banks // *ICFNDs 2021: The 5th International Conference on Future Networks & Distributed Systems*. December 2021, pp 378–392 <https://doi.org/10.1145/3508072.3508141>.
12. Challoumis, C. (2019). Theoretical Definition of the Velocities of Escaped Savings With Than of Financial Liquidity. *SSRN Electronic Journal*
13. Abdullayeva Sh. (2003) "Bank ishi", Toshkent, "Moliya instituti", O'quv-qo'llanma, 312 bet.
14. Omonov A. A. Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. i.f.d. ilm. daraja. olish uchun baj. dis. avt. –T. : 2008, BMA, 36 b.
15. <https://www.statista.com/statistics/1110550/roe-us-banking-industry-per-quarter/> veb sahifasi orqali muallif tomonidan tayyorlangan.
16. International Financial Statistics IMF. July 2022.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.